

JAHOLATGA QARSHI ISYON: MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV VA
"USULI JADID" MAKTABLARI

Xaitmamatova Munisa

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat – jadidchilikning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari va tarixiy ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada harakatning yetakchisi Munavvarqori Abdurashidxonovning o'rni, "Usuli jadid" maktablarining joriy etilishi hamda jadidlarning matbuot, teatr va xayriya ishlari orqali millatni uyg'otishdagi metodlari yoritilgan. Shuningdek, harakatning siyosiy lashuvi, Turkiston Muxtoriyati, sovet davridagi qatag'onlar fojiasi va jadidchilik g'oyalarining bugungi mustaqil O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni haqida xulosa qilingan.*

Kalit so'zlar: *Jadidchilik, Munavvarqori Abdurashidxonov, Usuli jadid, Turkiston, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish (Renessans), Turkiston Muxtoriyati, repressiya, matbuot, teatr.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются возникновение, этапы развития и историческое значение джадидизма — общественно-политического и просветительского движения в Туркестане конца XIX – начала XX веков. Особое внимание уделяется роли лидера движения Мунавваркары Абдурашидханова, внедрению новометодных школ («Усули джадид»), а также методам джадидов по пробуждению национального самосознания через прессу, театр и благотворительность. Анализируются политизация движения, создание Туркестанской автономии, трагические последствия сталинских репрессий и влияние идей джадидизма на формирование современного независимого Узбекистана.*

Ключевые слова: *Джадидизм, Мунавваркары Абдурашидханов, Усули джадид, Туркестан, просветительство, национальное возрождение (Ренессанс), Туркестанская автономия, репрессии, пресса, театр.*

Annotation: *This article analyzes the emergence, developmental stages, and historical significance of Jadidism, a socio-political and enlightenment movement in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries. It highlights the pivotal role of the movement's leader, Munavvarqori Abdurashidxonov, the establishment of "Usuli jadid" (new method) schools, and the methods used by Jadids to awaken the nation through the press, theater, and charity. The paper also examines the politicization of the movement, the formation of the Turkestan Autonomy, the tragic consequences of Soviet repression, and the enduring legacy of Jadidist ideas in the development of modern independent Uzbekistan.*

Keywords: *Jadidism, Munavvarqori Abdurashidxonov, Usuli jadid, Turkestan, enlightenment, national renaissance, Turkestan Autonomy, repression, press, theater.*

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi o'z tarixining eng og'ir davrlaridan birini boshdan kechirayotgan edi. Chor Rossiyasining mustamlaka zulmi bir tomondan, asrlar davomida hukm surib kelgan diniy mutaassiblik va qoloqlik ikkinchi tomondan xalqning oyog'iga kishan bo'lgan edi. Dunyo sanoat inqilobi, elektr energiyasi va telegraf bilan tanishayotgan bir paytda, Turkiston aholisining 98 foizi savodsiz edi. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi nafaqat mustamlaka zulmi, balki chuqur qoloqlik va jaholat botqog'iga botgan edi. Dunyo ilm-fan va texnika bilan rivojlanayotgan bir paytda, o'lka ta'lim tizimi asrlar davomida o'zgarmagan, faqat diniy dogmalarni yodlatishga asoslangan eski usulda qolgan edi. Mana shunday bir davrda Toshkentda yangi bir ovoz yangradi. Bu — "Millatning otasi" deb e'tirof etilgan Munavvarqori Abdurashidxonovning ovozi edi. Uning jaholatga qarshi ko'targan eng katta quroli — bu "Usuli jadid" (yangi usul) maktablari edi. Ana shunday "g'aflat uyqusi" hukm surgan davrda millatni uyg'otish, unga o'zligini tanitish va jahon sivilizatsiyasiga olib chiqishni maqsad qilgan harakat – Jadidchilik maydonga keldi. Bu harakatning Turkistondagi asoschisi, "ma'naviy otasi" va eng yirik namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonov edi. Uning jaholatga qarshi e'lon qilgan urushi qon to'kish bilan emas, balki qalam, kitob va yangi usuldagi maktablar bilan olib borildi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mavjud bo'lgan eski maktablarda bolalar yillab o'qisalar-da, xat-savodni to'liq chiqara olmasdilar. O'qitish uslubi "hijjalab o'qish"ga asoslangan bo'lib, ma'noni tushunmasdan yodlash talab etilardi. Dunyoviy fanlar (geografiya, hisob, tarix) mutlaqo o'qitilmasdi.

Munavvarqori bu holatni millat fojiasi deb bildi. U shunday yozgan edi: "Bizni jaholat, g'aflat va nodonlik engdi". Shu sababli, u najotni faqat va faqat zamonaviy ta'limda ko'rdi. Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yil, Toshkent shahri, Shayxontohur dahasi, Darxon mahallasi. Da dunyoga keladi. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o'g'li mudarris (o'qituvchi) bo'lgan. Onasi Xosiyat otin o'qimishli ayol bo'lib, Munavvarqorining dastlabki ustozlari hisoblanadi. Dastlab Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so'ngra Buxorodagi mashhur madrasalarda tahsil olgan. Munavvarqori Buxoroda tahsil olayotib, u yerdagi ta'lim tizimining butunlay chiriganiga guvoh bo'ladi. Talabalar yillab hujralarda yashasa-da, ilmdan bebahra qolayotgani, mudarrislar faqat quruq yodlatish bilan shug'ullanishini ko'rib, qattiq iztirobga tushadi. U tushunadiki, eski usul bilan millatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu yerda unda islohotchilik g'oyalari uyg'onadi.

Metodlar

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi o'z tarixining eng murakkab davrlarini boshidan kechirayotgan edi. Chor Rossiyasi istilosi ostida qolgan o'lka iqtisodiy va siyosiy jihatdan qaram bo'libgina qolmay, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham chuqur turg'unlik (stagnatsiya) holatida edi. Hamda aholining holining 98% ga yaqini xat-savodsiz

edi. Bundan tashqari, maktab va madrasalarda o'qitish o'rta asr metodikasi (sxolastika) asosida olib borilar, dunyoviy fanlar "dinsizlik" deb rad etilardi. O'sha davrlar juda og'ir o'tgan sababi, jamiyat bid'at-xurofotlarga botgan, mahalliy boylar aish-ishrat bilan band, ulamolar esa har qanday yangilikni inkor etar edi. Mana shunday "zimiston" ichida millatni qutqarish uchun maydonga chiqqan kuch — Jadidchilik harakati bo'ldi. Bu harakatning Turkistondagi asoschisi, nazariyotchisi va amaliyotchisi Munavvarqori Abdurashidxonov edi. adidchilik harakati (arabcha "jadid" – yangi so'zidan olingan) – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston, Qrim, Kavkaz va Volga bo'ylarida yuzaga kelgan keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakatdir. Olimlar jadidchilik harakatini shartli ravishda 3 ta asosiy bosqichga bo'lishadi, lekin "boshlanish bosqichi" asosan bir inchoisiga to'g'ri keladi:⁷⁸ Jadidchilik harakati (arabcha "jadid" – yangi so'zidan olingan) – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston, Qrim, Kavkaz va Volga bo'ylarida yuzaga kelgan keng ko'lamli ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakatdir.

I bosqich: Ma'rifatchilik bosqichi (XIX asr oxiri – 1914/1917-yillar)
Bu harakatning paydo bo'lishi va shakllanish davri hisoblanadi. Bu bosqich boshlanishidan maqsad- xalqni jaholatdan qutqarish, savodxonlikni oshirish, diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish. Ularning asosiy faoliyati eski maktablarni isloh qilish, yangi usuldagi maktablar ochish, darsliklar yozish, gazetalar chiqarish va teatrnii yo'lga qo'yish. Ismoilbek Gasprinskiyning Qrimda "Tarjumon" gazetasini chiqarishi va "Usuli jadid" (yangi usul) maktabini ochishi butun turkiy dunyo, xususan, Turkiston jadidlari uchun turtki bo'ldi. Turkistonda Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi allomalar bu ishga boshchilik qildilar.

II bosqich: Siyosiy lashuv bosqichi (1917-yil – 1918-yil)

Ushbu bosqichda Rossiyadagi fevral inqilobidan so'ng jadidlar faqat ma'rifat bilan cheklanib qolmay, siyosiy huquqlar, muxtoriyat (autonomiya) va davlatchilik masalalarini ko'tara boshladilar (Masalan: "Turkiston Muxtoriyati"ning tuzilishi).

III bosqich: Sho'ro davri va tugatilishi (1920 – 1938-yillar)

Hamda so'nggi bosqichda Bolsheviklar hokimiyatga kelgach, jadidlar sovet tizimi ichida ishlab, xalq manfaatini himoya qilishga urindilar, ammo 30-yillar oxiridagi "Katta qirg'in" (repressiya) davrida jismonan yo'q qilindilar.

Jadidchilik shunchaki maktab ochish emas, balki jamiyatning dunyoqarashini tubdan o'zgartirishga qaratilgan modernizatsiya (yangilanish) harakati edi. Jadidlar o'z g'oyalarini xalqqa yetkazish va jamiyatni o'zgartirish uchun 4 ta asosiy quroldan (metoddan) foydalanganlar:

1. "Usuli jadid" (Yangi usul) maktablari orqali

Bunda eski maktablarda bolalar yillab o'qisa hamsavodi to'liq chiqmasdi. Jadidlar "tovush usuli"ni (usuli savtiya) joriy qildilar. Bu usulda bolalar 40 kunda savod chiqarardi.

⁷⁸ Adeeb Khalid. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*

Bundan tashqari, diniy ilmlar bilan bir qatorda hisob (matematika), jug'rofiya (geografiya), tarix va tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o'qitila boshlandi. Parta, doska va xarita kabi jihozlar kiritildi.

2. Matbuot (Gazeta va jurnallar)lar orqali

Bu yo'l orqali jadidlar matbuotni "millatning tili va ko'zi" deb bildilar. Ular orqali dunyo yangiliklarini tarqatishdi va muammolarni tanqid qilishdi. Hamda bir nechta gazetalari "Tarjumon" (Gasprinskiy), "Oyna" jurnali (Behbudiy), "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoi Turkiston" va boshqalarni nashr qilishni yo'lga qo'yishdi.

3. Teatr va san'at:

Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek: "Teatr – bu ibratxonadir". Jadidlar xalqni teatr orqali tarbiyalashni samarali usul deb bildilar. Sahnada johillik, bid'at-xurofotlar, isrofgarchiliklar hajv qilingan. Shulardan biri Behbudiyning "Padarkush" dramasi. Bunda ilmsiz farzandning ayanchli hayoti tasvirlangan.

4. Xayriya jamiyatlari va chet elda o'qitish:

Iqtidorli yoshlarni rivojlangan davlatlarga (Germaniya, Turkiya, Misr) o'qishga yuborish uchun maxsus jamiyatlar tuzdilar (Masalan: "Ko'mak" tashkiloti, "Tarbiyaviy atfol" jamiyati). Ular boylardan pul yig'ib, kambag'al lekin iqtidorli bolalarni o'qitganlar.

Natijalar

Jadidchilik harakatining natijalari ulkan tarixiy va fojiali ahamiyatga ega. Bu harakat garchi siyosiy jihatdan bolsheviklar (sovetlar) tomonidan bostirilgan bo'lsa-da, millatning ongi, madaniyati va dunyoqarashida o'chmas iz qoldirdi. Olimlar uning natijalarini shartli ravishda 4 yo'nalishga bo'lishgan:⁷⁹

1. Madaniy va ma'rifiy inqilob (Eng katta yutuq)

Jadidlar qisqa vaqt ichida Turkiston xalqini o'rta asrlar qoloqligidan zamonaviy dunyoqarash sari yetaklay oldilar. Ular yangi ta'lim tizimini "Usuli jadid" maktablari bugungi zamonaviy o'zbek maktablarining poydevori bo'ldi. Savodxonlik darajasi oshdi. Hamda milliy matbuot ruvojlandi. Abdulla Qodiriy ("O'tkan kunlar"), Cho'lpon, Fitrat kabi buyuk yozuvchilar yetishib chiqdi. Ular o'zbek tilini adabiy til darajasiga ko'tardilar. Teatr san'ati O'zbek milliy teatri shakllandi va u xalqni tarbiyalash vositasiga aylandi. Ayollar masalasi o'rta qo'yildi. Jadidlar xotin-qizlarning ta'lim olishi va jamiyatdagi o'rnini oshirish masalasini birinchi bo'lib dadil ko'tarib chiqdilar.

2. Siyosiy natijalar va Milliy davlatchilik

Jadidlar nafaqat o'qituvchi, balki siyosatchi sifatida ham shakllanishdi. Turkiston Muxtoriyati (1917) o'rnatildi. Jadidlar Qo'qonda "Turkiston Muxtoriyati" hukumatini tuzdilar. Garchi u bor-yo'g'i 72 kun yashagan bo'lsa ham, bu xalqning o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan ilk demokratik urinishi edi. Buxoro va Xorazm respublikalari

1. ⁷⁹ **Dilorom Alimova.** *Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.* (Toshkent, 1999).

(1920): Buxoro amirligi va Xiva xonligi tugatilgach, hokimiyatga kelgan "Yosh buxoroliklar" va "Yosh xivaliklar" (jadidlar) qisqa muddat bo'lsa-da, davlatni zamonaviy boshqarishga harakat qildilar (Konstitutsiya qabul qilish, vazirliklar tuzish). Germaniyada o'qigan talabalar: Jadidlar tashabbusi bilan 70 dan ortiq iqtidorli yoshlar Germaniyaga o'qishga yuborildi. Ular keyinchalik yurtga qaytib, ilk professorlar, muhandislar va kimyogarlar bo'lishdi (lekin afsuski, keyinchalik qatag'on qilindi).

3. Fojiali yakun (Qatag'on davri)

Bu harakatning natijasi fojia bilan tugashining sababi Sovet hukumatining mustamlakachilik siyosati edi. 1920-yillarning oxiridan boshlab, ayniqsa 1937-1938-yillardagi "Katta qirg'in" (repressiya) davrida jadidchilik harakatining deyarli barcha namoyandalari (Munavvarqori, Behbudiy, Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Elbek va boshqalar) "Xalq dushmani", "Panturkist" va "Panislomist" degan soxta ayblovlar bilan otib tashlandi yoki surgun qilindi. Ularning asarlari yoqib yuborildi, nomlarini tilga olish taqiqlandi. Sovet davrida ular "burjuaziya millatchilari" deb qaralandi.

4. Tarixiy ahamiyati va bugungi kun

Jadidchilik harakati mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, uning g'oyalari o'lmadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, aynan jadidlarning g'oyalari milliy mafkuraning asosiy qismiga aylandi. Bugungi kunda jadidlar to'liq oqlangan, ularning nomlari maktablar, ko'chalar va universitetlarga berilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Jadidlar bizning milliy genofondimiz, oltin merosimizdir".

Jadidchilikning natijasi shuki, ular millatni uyg'otdilar. Garchi o'zlari qurbon bo'lgan bo'lsalar-da, bugungi zamonaviy, dunyoviy va ma'rifatli jamiyat uchun zamin yaratib ketdilar. Jadidchilik — bu shunchaki tarixiy voqea emas, bu Markaziy Osiyo xalqlarining Uyg'onish davri (Renessansi) edi. Ular qisqa vaqt ichida o'rta asr zulmatidan zamonaviy dunyoga ko'prik sola oldilar. Bugungi mustaqil O'zbekistonning ziyolilari, olimlari va madaniyati aynan o'sha jadidlar ekkan urug'ning mevasidir. Bu harakat shunchaki maktab ochish emas, balki "Millatni qayta kodlash" (perezagruzka) harakati edi desak bo'ladi.

Xulosa

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan Jadidchilik harakati – bu shunchaki tarixiy voqea emas, balki o'zbek xalqi va butun Markaziy Osiyo millatlarining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotidagi eng yirik burilish nuqtasi, o'ziga xos "Milliy Uyg'onish" (Renessans) davridir. Jadidlar ko'r-ko'rona G'arbga taqlid qiluvchilar emas, balki "Sharqona axloq va G'arbons taraqquiyot" sintezini yaratishga intilgan ziyolilar edi. Ular Islom dinini taraqqiyotga g'ov emas, balki ilm-fanga undovchi kuch sifatida talqin qildilar. Vaqt o'tishi bilan harakat ma'rifatchilikdan siyosiy bosqichga ko'tarildi. 1917-yildagi "Turkiston Muxtoriyati"ning tuzilishi jadidlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga va milliy davlatchilikni tiklashga bo'lgan eng jiddiy urinishi edi. Ular amirlik istibdodi va bolsheviklar bosqini o'rtasida "uchinchi yo'l"ni – demokratik va huquqiy davlat modelini taklif qildilar. Afsuski, mustamlakachi sovet tuzumi bu hurfikrli harakatni o'zi uchun xavf deb bildi. 1937-1938-yillardagi "Katta qirg'in" (repressiya) davrida

Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Munavvarqori kabi millatning eng sara gullari "xalq dushmani" tamg'asi bilan jismonan yo'q qilindi. Ularning asarlari yoqildi, g'oyalari taqiqlandi.

Biroq, jadidlar jismonan mag'lub bo'lsalar-da, ma'naviy g'alaba qozondilar.

Birinchidan, ular qisqa vaqt ichida o'zbek tilini zamonaviy adabiy til darajasiga ko'tardilar. Ikkinchidan, bugungi zamonaviy ta'lim, madaniyat va san'atimizga tamal toshini qo'ydilar. Uchinchidan, va eng muhimi – ular xalq ongiga Mustaqillik urug'ini qadab ketdilar. Bugungi O'zbekiston davlati, uning milliy mafkurasi va intilayotgan maqsadlari aynan jadidlar orzu qilgan poydevor ustida turibdi. Jadidlar – bizning o'tmishdagi armoni, bugungi faxrimiz va kelajak uchun mayoqdir. Ular o'z jonlari evaziga millatni o'rta asrlar zulmatidan olib chiqib, yorug' kunlarga yo'llagan fidoyilar sifatida tarixda abadiy qoldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. (Toshkent, 2002).
2. Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. (Jadidchilik: Markaziy Osiyoda islom islohotchiligi siyosati).
3. Dilorom Alimova. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. (Toshkent, 1999).
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Xavfsizlik Xizmati arxivi hujjatlari. (Munavvarqori tergov ishi materiallari asosida yozilgan maqolalar).